


“TASDIQLANGAN”
“Madad Invest Bank”
aksiyadorlik tijorat banki
aksiyadorlar umumiy
yig‘ilishining 2024 yil 6 apreldagi
17-sonli bayonnomasiga 7-Ilova



Kuzatuv kengashi raisi:


Sh.R. Xadjizadaev

**“MADAD INVEST BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT
BANKI TAFTISH KOMISSIYASI TO‘G‘RISIDA
NIZOM**

MUNDARIJA

.....	1
1-bob. Umumiy qoidalar	3
2-bob. Taftish komissiyasining vazifalari va majburiyatlari	3
3-bob. Taftish komissiyasining huquqlari va vakolatlari	4
4-bob. Tekshirishlar (taftishlar) o‘tkazish tartibi va taftish komissiyasi a‘zolariga xaq (kompensatsiyalar) to‘lash	5
5-bob. Taftish komissiyasi a‘zolarini saylash va vakolatlarini tugatish	7
6-bob. Taftish komissiyasining majlislari	9
7-bob. Yakuniy qoidalar	10

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom “MADAD INVEST BANK” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) Taftish komissiyasining maqomini belgilaydi va faoliyatini, uni saylash tartibi, shuningdek funksional majburiyatlari va vakolatlarini tartibga soladi.

2. Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek Korporativ boshqaruv kodeksiga va Bank ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Taftish komissiyasi Bank moliyaviy faoliyati ustidan nazorat olib borishda aksiyadorlar uchun asosiy vosita hisoblanadi. Taftish komissiyasi Bankning, uning bo‘linmalari va xizmatlarining, filiallari va vakolatxonalarining ichki moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat olib boruvchi ichki nazorat organidir.

4. Taftish komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlar, bank ustaviga, ushbu nizomga va bankning boshqa hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Taftish komissiyasining vazifalari va majburiyatlari

5. Bankning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) Taftish komissiyasining, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, Bank Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra Kuzatuv kengashni oldindan xabardor qilish yo‘li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

6. O‘z vazifalarini bajarish chog‘ida Taftish komissiyasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- ustavda belgilab qo‘yilgan hisobot davrida, shuningdek qonunchilikda belgilab qo‘yilgan boshqa holatlarda bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari bo‘yicha taftishlar o‘tkazadi;

- har yili o‘tkaziladigan auditorlik tekshiruvi natijalaridan va ichki audit xizmati materiallaridan foydalanadi. Zarur hollarda Taftish komissiyasi birlamchi buxgalteriya hujjatlariga asosan o‘rganishi mumkin;

- buxgalteriya va statistik hisoblarning amaldagi me‘oriy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qiladi;

- Bankning moliyaviy ahvolini, uning to‘lovga laëqatligini, aktivlarning likvidligini, o‘zining mablag‘lari va qarz mablag‘larining nisbatini, Bank iqtisodiy ahvolini yaxshilash zahiralari qidirib topilishini hamda Bank boshqaruv organlari tomonidan moliyaviy xo‘jalik faoliyati masalalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilishini tahlil qiladi;

- Bank balanslarining, yillik hisobotlarning, foydalar va zararlar hisobvaraqlarining, foyda taqsimlanishining, soliq inspeksiyasiga, statistika idoralariga, davlat boshqaruvi orgnalariga yuboriladigan hisobotlarning to'g'ri tuzilganligini tekshiradi;

- Bank tomonidan qimmatli qog'ozlar va aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi meyoriy hujjatlar talablariga rioya etilishini tekshiradi;

- Bank ustavida Taftish komissiyasi vakolatlariga kiritilgan, shu jumladan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hamda Kuzatuv kengash tomonidan yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Kuzatuv kengashni oldindan xabardor qilish yo'li bilan topshirilgan boshqa turdagi ishlarni amalga oshiradi.

7. Taftish komissiyasi quyidagilarga majbur:

- bajarilgan tekshirishlar va taftishlar natijalarini o'z vaqtida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga, Kuzatuv kengashga, Bank Boshqaruviga xulosalar, ezma hisobotlar, bildirishnomalar, Bank boshqaruv organlari majlislarida ma'lumotlar tarzida yetkazishi;

- Bankning yillik hisobotiga kiritilgan ma'lumotlarning hamda Bankning yillik buxgalteriya hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga baho berishi;

- Bankning bir yillik faoliyat natijalari bo'yicha, shuningdek qonunchilikda, Bank ustavida va mazkur nizomda belgilangan shaxslarning tashabbusi bilan istalgan vaqtda Bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilishi;

- Taftish komissiyasi a'zolari xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan doxil bo'lgan tijorat va bank sirini saqlashi, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

- aksiyadorlar tomonidan kiritilgan boshqaruv organlarining va mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilishi; - aniqlangan moliyaviy va huquqiy faoliyat sohasidagi tartib buzilishlari, yoki Bank manfaatlariga jiddiy xavf vujudga kelishi to'g'risidagi masalalarni Bankning boshqaruv organlari tomonidan hal etilishi zurr bo'lgan holda Kuzatuv kengash majlisi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab etishi.

8. Tekshirishlarni o'tkazish chog'ida Taftish komissiyasining a'zolari tekshiruv predmetiga oid barcha hujjatlarni va materiallarni sinchiklab o'rganishlari shart.

3-bob. Taftish komissiyasining huquqlari va vakolatlari

9. O'z vazifalarini lozim darajada bajarish maqsadida Taftish komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

- Bankning istalgan moliyaviy hujjatlarini, shu jumladan Bank inventarizatsiya komissiyasi hujjatlarini tekshirish, ushbu hujjatlarni birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

- Bank boshqaruv organlaridan, uning bo'linmalari va xizmatlaridan, mansabdor shaxslardan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni talab qilish va olish.

Mazkur hujjatlar va materiallar Taftish komissiyasiga so'rovnomma berilganidan keyin ikki ish kuni ichida taqdim etilishi shart;

- moliyaviy va huquqiy faoliyat sohasida tartib buzilishlari aniqlangan èxud Bank manfaatlariga boshqa xavf vujudga kelgan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi chaqirilishini (bir ovozdan qabul qilingan qaror asosida) talab qilish;
- Kuzatuv kengash majlisi chaqirilishini talab qilish. Kuzatuv kengash raisi Taftish komissiyasining talabiga asosan Kuzatuv kengash yig'ilishi chaqirilishini rad etishga haqli emas;
- Kuzatuv kengash majlislarida uning istalgan a'zosining taklifi asosida ishtirok etish;
- Bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslari tomonidan Bank tomonidan qabul qilingan nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarning buzilishi hollari aniqlanganda, Bankning boshqaruv organlaridan ularning javobgarligi masalasini ko'rib chiqishni talab etish;
- qonunchilik va Bank ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ega.

10. Taftish komissiyasining a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

- Taftish komissiyasi tomonidan kechiktirmasdan hal etilishi zarur bo'lgan tartib buzilishlari aniqlangan holda, komissiyaning shoshilinch majlisi chaqirilishini talab etish;
- Taftish komissiyasining xulosalariga nisbatan o'z noroziligini èzma ravishda bildirish va uni Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi e'tiboriga yetkazish;
- aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etish va yig'ilish qatnashchilarining savollariga o'z vakolatlari doirasida javob berish.

4-bob. Tekshirishlar (taftishlar) o'tkazish tartibi va taftish komissiyasi a'zolariga xaq (kompensatsiyalar) to'lash

11. Bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) bir yillik faoliyat natijalari yuzasidan o'tkaziladi.

12. Taftish komissiyasi Kuzatuv kengashga Bankning bir yillik faoliyati natijalari yuzasidan o'tkazilgan tekshirish (taftish) natijalari bo'yicha o'z xulosalari baèn etilgan hisobotni hamda Bankning yillik hisobotiga kiritilgan, èxud yillik buxgalteriya balansida berilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi xulosasini Bankning yillik hisobotini ma'qullash masalasi ko'riladigan Kuzatuv kengash majlisining o'tkazilishidan kamida 3 kun oldin taqdim etadi.

13. Bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish (taftish) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori asosida;
- Kuzatuv kengash qarori asosida;
- Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (birgalikda egalik qiluvchi aksiyadorlarning) talabiga ko'ra;
- Taftish komissiyasining o'z tashabbusi bilan.

14. Rejadan tashqari tekshirish (taftish) to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etaètgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Taftish komissiyasi tekshirishni (taftishni) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tegishli qarorini olganidan keyin boshlaydi.

15. Rejadan tashqari tekshirish (taftish) to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengash tomonidan majlisda ishtirok etaётgan Kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan, sirtidan (so'rov asosida) ovoz berish holatida barcha Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Ushbu qaror uning qabul qilinishi uchun ovoz bergan barcha Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan imzolangan holda Taftish komissiyasining raisiga yuboriladi.

16. Taftish komissiyasining a'zosi tartib buzilishlarini aniqlagan holda Taftish komissiyasining raisiga aniqlangan tartib buzilishining ezma tafsilotini komissiyaning tegishli qarorini qabul qilish uchun yuboradi.

17. Taftish komissiyasining raisi talabanomani olganidan keyin 3 ish kuni ichida Taftish komissiyasining majlisini chaqarishi lozim.

18. Taftish komissiyasi tomonidan tekshirish (taftish) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan holda, Taftish komissiyasining raisi tekshirish (taftish) o'tkazilishini tashkil etishi va uning amalga oshirilishini boshlashi shart.

19. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyador (birgalikda egalik qiluvchi aksiyadorlar) tomonidan rejadan tashqari tekshirish (taftish) o'tkazilish talabnomasini qo'yishga haqli.

20. Bunda Tekshirish (taftish) o'tkazilishining tashabbuskori bo'lgan aksiyador(lar) Taftish komissiyasiga ezma talabnoma yo'llaydilar, unda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilish shart:

- aksiyadorlarning F.I.O. (nomi);
- ularga tegishli aksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar (miqdori, toifasi, turi);
- ushbu talabning asoslangan dalillari.

21. Talabnoma aksiyador yoki ishonchli vakil tomonidan imzolanadi. Agar talabnomani ishonchli vakil imzolasa, unga ishonchnoma ilova qilinishi shart.

22. Agar tashabbus yuridik shaxs bo'lgan aksiyador tomonidan chiqqan bo'lsa, yuridik shaxsning korxonaga ustaviga muvofiq ishonchnomasiz harakat qiluvchi vakilining imzosi mazkur yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar talabnoma yuridik shaxsning ishonchnoma asosida harakat qiluvchi vakili tomonidan imzolansa, talabnomaga ishonchnoma ilova qilinadi.

23. Tekshirish (taftish) o'tkazish tashabbuskorlarining talabnomasi Bank manziliga buyurtma xat tarzida Taftish komissiyasining raisi nomiga topshirilgani to'g'risida xabar berish sharti bilan yuboriladi, yoki Bank devonxonasiga topshiriladi.

24. Talabnoma qo'yilgan sana uning topshirilgani to'g'risidagi xabarnoma sanasi yoki devonxonaga taqdim etilgan sana bilan belgilanadi.

25. Talabnoma qo'yilganidan keyin 10 ish kuni ichida Taftish komissiyasi Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish (taftish) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi ezud Taftish o'tkazilishini asoslangan tarzda rad etishi shart.

26. Tekshirish (taftish) o'tkazilishini taftish komissiyasi quyidagi hollarda rad etishi mumkin:

- talabnomani qo'ygan aksiyadorlar talabnoma qo'yilgan sanada buning uchun zarur miqdordagi aksiyalarning egasi hisoblanmaydilar;

- talabnoma qo'yish tashabbuskorlari aksiyadorlar reestrida ro'yxatga olinmagan yoki tegshili aksiyadorlarning qonuniy vakilligiga ega bo'lmagan shaxslar bo'lsa;

talabnomada tekshirish (taftish) o'tkazishning asoslari

- isbotlanmagan bo'lsa;
- tekshirish (taftish) o'tkazish uchun asos qilib ko'rsatilgan holatlar yuzasidan avval tekshirish (taftish) o'tkazilgan va Taftish komissiyasi tomonidan xulosa tasdiqlangan bo'lsa;
- talabnomada ma'lumotlar to'liq keltirilmagan bo'lsa;
- talabnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, me'riy huquqiy hujatlarga va Bank ustaviga muvofiq kelmasa.

27. Tekshirish (taftish) larni o'tkazish chog'ida Taftish komissiyalarining a'zolari tekshirish predmetiga doir mavjud va olingan hujjatlar hamda materiallarning hammasini o'rganib chiqishlari shart.

28. Bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha Bank Taftish komissiyasi xulosa tuzadi, unda quyidagilar aks ettirilishi zarur:

- Bank hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlar ishonchliligiga berilgan baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hujjatlarni taqdim etish tartibining, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jara'ida yo'l qo'yilgan qonunchilikning buzilishi holatlari to'g'risidagi axborot.

29. Mazkur xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi, rejadan tashqari tekshirishda tekshirish tashabbuskoriga yetkaziladi.

30. Bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) tashabbuskorlari Taftish komissiyasi tekshirish (taftish) o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilguncha bo'lgan muddat ichida istalgan vaqtda o'z talabnomalarini Taftish komissiyasini e'zma ravishda habardor etgan holda qaytarib olishga haqlidirlar.

31. Taftish komissiya har chorakda Bankda afillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek ana shunday bitimlar tuzish bo'yicha qonunchilik va Bank ichki hujjatlarining talablariga rioya etilishi to'g'risidagi xulosani Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga olib chiqadi.

32. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Taftish komissiya a'zolariga Taftish komissiya a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda haq va kompensasi qoplanishi mumkin.

5-bob. Taftish komissiyasi a'zolarini saylash va vakolatlarini tugatish

33. Bank Taftish komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni ko'rsatish, kiritilgan takliflarni Kuzatuv kengash tomonidan ko'rib chiqish va qaror qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 63 va 65-moddalariga muvofiq belgilanadi.

34. Taftish komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni ko'rsatish bo'yicha takliflar Bank manziliga buyurtma xat tarzida yuboriladi, yoki Bank devonxonasiga topshiriladi. Taklif kiritilgan sana pochta jo'natmasi sanasi yoki devonxonaga taqdim etilgan sana bilan belgilanadi.

35. Taklif aksiyador yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolanadi, agar taklif ishonchli vakil tomonidan imzolansa, unga ishonchnoma ilova qilinadi.

36. Agar tashabbus yuridik shaxs bo'lgan aksiyador tomonidan chiqqan bo'lsa, korxonaga ustaviga muvofiq yuridik shaxsning ishonchnomasiz harakat qiluvchi vakilining imzosi mazkur yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi. Agar talabnoma yuridik shaxsning ishonchnoma asosida harakat qiluvchi vakili tomonidan imzolansa, talabnomaga ishonchnoma ilova qilinadi.

37. Taftish komissiyasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 kishidan iborat tarkibda bir yil muddatga yig'ilishda qatnashaётgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bilan ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan saylanadi. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi, Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlashi mumkin emas. Taftish komissiyasini saylash alohida ovoz berish usulida, har bir nomzod shaxsan o'tkaziladi. Ayni bir shaxs Taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

38. Bank Taftish komissiyasi a'zolariga nisbatan quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

- ixtisoslik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lish;
- iqtisodiyot, moliya va huquq sohasida kamida 3 yillik ish tajribasi.

39. Taftish komissiyasi o'z tarkibidan rais va kotibni saylaydi. Taftish komissiyasining raisi va kotibi komissiyaga saylanganlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Taftish komissiyasining majlisida saylanadi.

40. Taftish komissiyasi o'z raisi va kotibini komissiyaga saylanganlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan, Taftish komissiyasidan chiqib ketganlarning ovozini istisno etgan holda, istalgan vaqtda qayta saylashi mumkin.

41. Taftish komissiyasining a'zosi Taftish komissiyasida o'z ishini tugatishdan bir oy oldin Taftish komissiyasini va Bank Kuzatuv kengashini e'zma ravishda ogohlantirgan holda istalgan vaqtda o'z ixtioriga ko'ra uning tarkibidan chiqishga haqli. Bu holda Bank Kuzatuv kengashi Taftish komissiyasining yangi a'zosini saylash uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirtiradi.

42. Taftish komissiyasining a'zosi xamda ushbu organga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar tugatish komissiyasi, Kuzatuv kengash yoki Boshqaruv tarkibiga kiritilishi, e'xud Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida mehnat qilishi mumkin emas.

43. Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yig'ilishda qatnashaётgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egalari bilan ko'pchilik ovozi bilan quyidagi asoslarga ko'ra tugatilishi mumkin:

- Taftish komissiyasining majlislarida 3 martadan ortiq uzrli sabablarsiz ishtirok etmaslik;

- tekshirish predmetiga aloqador barcha hujjatlar va materiallarni lozim darajada o'rganilmaganligi, va buning natijasida Bank Taftish komissiyasi tomonidan noto'g'ri xulosa chiqarilganligi;

- boshqa harakatlari (harakatsizliklari) Bank uchun nomaqbul oqibatlarini keltirib chiqarishi.

44. Taftish komissiyasi a'zolarining soni Bank ustavida va mazkur nizomda ko'zda tutilgan miqdorning yarmidan kamayib qolsa, Kuzatuv kengash Taftish komissiyasining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirishi zarur.

45. Taftish komissiyasi vakolatlari muddatidan avval tugatilgan taqdirda, yangi saylangan Taftish komissiyasining vakolatlari aksiyadorlarning keyingi umumiy yig'ilishida Taftish komissiyasi saylangunga qadar amal qiladi.

46. Agar navbatdan tashqari umumiy yig'ilish kun tartibiga Taftish komissiyasi butun tarkibining vakolatlarini to'lig'icha yoki alohida a'zolarining vakolatlarini tugatish masalasi qo'yilgan bo'lsa, kun tartibiga shuningdek, Taftish komissiyasining yangi tartibini saylash maslasini ham kiritish shart.

47. Taftish komissiyasi tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflarni qonunchilikka va Bank ustaviga ko'ra Bankning boshqaruv va nazorat organlariga nomzodlarni taklif qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar kiritishi mumkin.

6-bob. Taftish komissiyasining majlislari

48. Taftish komissiyasi barcha masalalarni o'z majlislarida hal etadi. Taftish komissiyasining majlislari tasdiqlangan reja asosida, shuningdek tekshirish yoki taftishni boshlashdan oldin hamda ularning natijalari yuzasidan o'tkaziladi. Taftish komissiyasining a'zosi Taftish komissiyasi tomonidan kechiktirmasdan hal etilishi zarur bo'lgan tartib buzilishlari aniqlangan holda, komissiyaning shoshilinch majlisi chaqirilishini talab etishga haqlidir.

49. Taftish komissiyasining majlisi, agar unda a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashaётgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Taftish komissiyasining barcha majlislari a'zolarining ochiq qatnashuvi shaklida o'tkaziladi.

50. Taftish komissiyasining har bir a'zosi bitta ovozga ega. Taftish komissiyasining dalolatnomalari va xulosalari majlisda qatnashuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolsa, Taftish komissiyasi raisning ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

51. Taftish komissiyasining a'zolari komissiya qaroridan norozi bo'lgan holatda, majlis ba'nnomasida o'zlarining alohida fikrlarini qayd etib qo'yishlari va uni Kuzatuv kengash hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi e'tiboriga havola etishlari mumkin.

52. Taftish komissiyasining raisi:

- majlislarni chaqiradi va o'tkazadi;
- Taftish komissiyasining joriy ishini tashkil etadi;
- Kuzatuv kengash majlislarida va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida komissiyani ifoda etadi;
- uning nomidan chiqarilaётgan hujjatlarga imzo chekadi.

53. Rais bo'lmagan holatlarda uning vazifasini Taftish komissiyasi kotibi bo'lmagan a'zos bajaradi.

54. Taftish komissiyasining kotibi:

- uning majlislari ba'nnomasi yuritilishini tashkil etadi;
- Taftish komissiyasining dalolatnomalari va xulosalarini tegishli oluvchilarga yetkazadi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

55. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

56. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

57. Ushbu hujjat qabul qilinishi bilan ushbu mazmundagi bundan oldin qabul qilingan nizom o'z kuchini yo'qotgan xisoblanadi.

58. Mazkur Nizom kuchga kirishi munosabati bilan 2023 yil 22 iyundagi 13-sonli aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankining "Taftish komissiyasi to'g'risi"dagi nizom o'z kuchini yo'qotadi.

59. Nizomda ko'zda tutilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

60. Nizom talablarining buzilishida aybdor bolgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar boladilar.

61. Nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

62. Nizom royxatga olingan sanadan sanadan boshlab kuchga kiradi.

63. Nizom ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

wp: 